

---

## 4-sektor rahbarlari ezgu ishga qo'l urdi

Bugun kam ta'minlangan oilalarni yo'qlab, holidan xabar olish, ularga yordam ko'rsatishning ahamiyati har doimgidan ham muhimligini hammamiz ko'rib, bilib turibmiz. Bunday xayrli va ezgu ishlar butun dunyoga tashvish keltirgan koronavirus pandemiyasiga qarshi birdamlikda kurashishning ajralmas qismidir.



Farg'ona shahar 4-sektor rahbarlari ham ushbu savob ishdan chetda qolayotgani yo'q. Aholi yashash punktlarida karantin qoidalariga qat'iy rioya qilishlari lozimligi to'g'risida tushuntirish berish bilan birga, ushbu sinovli kunlarda og'ir vaziyatga tushib qolmasliklarini ta'minlashga, davlatimiz har bir fuqarosini himoya qilishga va qo'llab-quvvatlashga har doim tayyorligini yetkazmoqdalar.

Bugun erta tongdan sektor rahbarlari shahar dehqon bozorida 300 ga yaqin xonadonga kerakli bo'lgan go'sht, yoq, kartoshka, un, tuxum, piyoz, non kabi asosiy iste'mol mahsulotlari jamlab, mahallalardagi kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga tarqatildi.

Shahar hokimi, 1-sektor rahbari H.Habibidinov ham fuqarolar xonadonida bo'ldi.

- Bugunning o'zida 1-sektor hududidagi 71 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar holidan xabar olindi, - deydi H.Habibidinov. - Ularga oziq-ovqat mahsulotlari berish bilan birga, shuningdek, karantin qoidalariga qat'iy rioya qilish koronavirusni yengishda muhim ahamiyat kasb etishi borasida tushuntirishlar berildi.

Shahar prokurori A.Mamataliev boshchiligida 2-sektor a'zolari hududdagi mahallalarda yashayotgan kam ta'minlangan 68 ta oilada bo'lib, ularga oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga, himoya niqobi va antiseptik vositalar tarqatildi.

Kun davomida 3-, 4-sektor rahbarlari ham ushbu savob ishlarni davom ettirdilar.

2020-04-01 19:09:02